

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING 4K MODELI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH : ZAMONAVIY METODIKA VA TENDENSIYALAR.

Qarshiyeva Soxiba Uroq qizi

*Xalqaro innovatsion universiteti pedagogika va iqtisodiyot fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimiz boshlang'ich ta'lim tizimida 4K modelidan foydalanish va ushbu jarayonda kompotentlikni rivojlanirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Talim, 4K, bilim, ko'nikma, kognitiv, kollaborasiya, kommunikativ, kreativ fikrlash, bolalar.*

Dunyoda texnologiyalarning rivojlanishi, globallashuv, demografik muammolar jamiyatni faol ravishda o'zgartirmoqda. Bugungi globallashuv davrida ta'limning o'tgan asrda shakllangan bilim va ko'nikmalari bizning davrimizda muvaffaqiyat qozonish uchun yetarli emas. Ta'lim tizimi ham o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqmoqda va ta'lim dasturlarida tobora keng ko'lamli ko'nikmalarni o'z ichiga olmoqda. Eng muhim, ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'lim sohasidagi asosiy xalqaro hujjatda "barqaror rivojlanish maqsadlari" tasvirlangan va kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvorni o'rghanish natijalari aniqlangan. So'nggi bir necha yil ichida butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'limda XXI asrning zamonaviy kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlanirish uchun sharoit yaratishga harakat qilib, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda noan'anaviy yo'nalishdan foydalanilmoqda. XXI asrning turli xil ko'nikmalari va ta'lim natijalarida ushbu ko'nikmalarning turli xil qoidalariga qaramay, ularning to'plami ancha barqaror bo'lib qolmoqda. Mavjud ko'nikmalarga yoki savodxonlikka qo'shimcha ravishda, Partnership for 21st Century Learning XXI asr ko'nikmalari uchun asos yaratadi, unda "innovatsion ko'nikmalar" — tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, kreativlik va innovatsiya, muloqot va hamkorlikning ko'plab ko'nikmalarini o'rin olgan.

Zamonaviy ta'limda yetakchilik qilayotgan-Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Vietnamning ta'lim yutuqlari reytingda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Tadqiqotchilar ushbu mamlakatlarning ta'lim siyosati va ta'lim standartlarini belgilaydigan hujjatlarni o'rganib chiqdilar va o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan eng keng tarqalgan kompetensiyalar, qadriyatlar, munosabatlar va boshqa ta'lim natijalarini aniqladilar. Ular orasida birinchi o'rnlarni tanqidiy va innovatsion yoki kreativ fikrlash, o'zini boshqarish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati egallayd

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida «o'quvchi shaxsi»ni yaratadi, muktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala

sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhim, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovation yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

“Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi.” Chunki bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e’tibor talab etadi. Maktabostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta’lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. “4K” modeli ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlasga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, boshlang‘ich sind o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyni o‘z ichiga oladi.

Kollaborasiya – hamkorlik bu jamoada ishslash ko‘nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishslashlari, birovning g‘oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishni shakllantirishdir.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir.

Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun’iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqshni va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishga inkon yaratishini hisobga olsak, maktabdagisi har bir darsni o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur

Tanqidiy fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kollaborativlik, ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slatin, Minnesota universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. “O‘tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalarini oldindan aniqlash, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surg ach, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya mamlakatlari ta’lim muassasalarida bu goyalar keng qo‘llanila boshlagan.”

Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlik muhitini yaratish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoani rivojlantirish nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu nazariyaning mohiyati insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o‘rin tutishiga asoslanadi. Har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi. Bizning fikrimizcha, jamoaning ijodiy salohiyatidan foydalanish orqali shaxsga o‘z qobiliyatlarini ochish, shaxs sifatida namoyon bo‘lish imkoniyatini berish mumkin. O‘quvchi turli vaziyatda o‘z fikrini dadil bayon etadi, axborotni qidiradi, olingan ma’lumotlarni ongli va obyektiv baholashni o‘rganadi.

Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining hamkorlikda ishlash, ya’ni kolloborativ bo‘limi yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilarni hamkorlikda o‘qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud: guruhlarda o‘qitish (R.Slatin)da o‘quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi. R.Slatinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi etarli emas. O‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosbata esa, sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog‘liq bo‘lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning aqliy kuchini zo‘riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo‘llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to‘qnashadi. Inson muammo bilan yuzma-yuz (to‘qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O‘zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi. O‘quvchilar o‘zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Muammo hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o‘rinlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalab bera olishi o‘qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogi Disterveg bekorga “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni aytadi qo‘yadi, yaxshi o‘qituvchi esa, uni topishini o‘rgatadi” deb aytmagan. Bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi faqat mavzuni tushuntirib berish emas, masalani to‘g‘ri qo‘ya bilishi, o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtira olishi, uning tuyg‘ularini bezovta qila bilishi va muammoni hal etishda hamkor sifatida qatnashishdan iborat. Bola faoliyati erkin bo‘lsa, hurligiga dahl

qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Bahs jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorligi bolani muteliikdan, ko‘r-ko‘rona itoatdan qutqaradi. Dars bir maqsad sari itilayotgan hamkorlikning yagona faoliyatiga aylanadi. Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to‘liq bajarilish natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, agar biz o‘quvchilarga ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini ular doimiy ravishda bajarishlari uchun tashkil etishimiz kerak. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar məktəb darslari orqali nafaqat mavzu mazmunini o‘zlashtirishlari, balki mustaqil ravishda bilim olish va yaratish qobiliyatini rivojlantirishi va eng muhimi, o‘zlarini boshqarishni va jamoada ishlashni o‘rganishi mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. — 2017
2. Hasaboyev J va bowq.Pedagogika fanidan izohli lug’at.-Toshkent,2009 3.
3. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limning innovatsion texnologiyalari.-Toshkent,2023
4. Moiseyuk N. E. Pedagogika: darslik. nafaqa. – M.: Granma, 1999. 348 b
5. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ..diss. –T.: 2007, -315 b.